

QO'QON XONLIGIDA DINIY TASHKILOTLAR BOSHQARUVINING IJTIMOIY ASOSLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15723304>

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich.
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE
UNIVERSITETI O'QITUVCHISI.

Annotatsiya:

Mazkur ilmiy maqolada Qo'qon xonligi davridagi diniy tashkilotlar boshqaruvining ijtimoiy asoslari o'rganilgan. Tadqiqotda qozilik, muftiylik, madrasalar va vaqf tizimi kabi diniy institutlarning jamiyatdagi o'rni, ularning ijtimoiy barqarorlik, axloqiy tarbiya va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli tahlil etilgan. Muallif diniy boshqaruv tizimi faqatgina diniy marosimlarni emas, balki xalq ongini, ijtimoiy tartibot va madaniy hayotni belgilovchi muhim omil sifatida faoliyat ko'rsatganini asoslab beradi. Maqola tarixiy manbalar, fiqhiy adabiyotlar va zamonaviy tadqiqotlar asosida yozilgan bo'lib, diniy tashkilotlarning ijtimoiy hayotdagi funksional va ma'naviy ahamiyatini chuqur yoritadi.

Kalit so'zlar:

Qo'qon xonligi, diniy tashkilotlar, diniy boshqaruv, qozilik, muftiylik, vaqf, madrasa, shariat, fiqh, ijtimoiy tartibot, axloqiy tarbiya, ma'naviyat, diniy-ma'rifiy tizim, xalq ongini shakllantirish, diniy institutlar.

Qo'qon xonligi (1709–1876) Markaziy Osiyo tarixida mustaqil siyosiy tuzilma sifatida shakllanib, o'ziga xos boshqaruv tizimi, diniy va ijtimoiy institutlari bilan ajralib turadi. Xonlikda diniy tashkilotlar jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, ularning boshqaruvdagi ishtiroki nafaqat diniy hayotni tartibga solish, balki keng ijtimoiy qatlamlar ongini shakllantirish, axloqiy me'yorlarni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan edi. Diniy tashkilotlar shariat asosida faoliyat yuritgan qozilik, muftiylik, vaqf boshqarmalari hamda madrasalar orqali xalqqa bevosita ta'sir o'tkazgan[1,54-56].

Ushbu maqolada Qo'qon xonligi davridagi diniy tashkilotlar boshqaruvining ijtimoiy asoslari, ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, din orqali amalga oshirilgan ijtimoiy boshqaruv shakllari tahlil qilinadi. Maqolada asosiy e'tibor diniy rahbarlarning (ulamo, qozilar, muftiyalar) xalq orasidagi obro'-e'tibori, ularning axloqiy-nasihat faoliyati va diniy ta'lim orqali jamiyatni ma'naviy

birlashtirishdagi roli kabi jihatlarga qaratiladi. Tadqiqot shuningdek, diniy boshqaruv tizimining mustahkam ijtimoiy zamin va qadriyatlar tizimiga tayanib faoliyat yuritganligini yoritib beradi. Qo'qon xonligidagi diniy tashkilotlar boshqaruvining ijtimoiy asoslarini o'rganishda bir nechta muhim turdagi manbalar va tadqiqot ishlari tahlil qilinadi. Eng avvalo, tarixiy-huquqiy manbalar, fiqhiy asarlar, mahalliy tarixchilar asarlari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bu masalani chuqur anglashda asosiy rol o'ynaydi[2,85-87]. Tarixiy manbalar ichida Ahmad Donishning "Navodir ul-vakoe", Hakimxon To'raning asarlari hamda boshqa xonlik davri yozma yodgorliklari xonlik ijtimoiy tuzilmasida diniy rahbarlar va tashkilotlar o'rnini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Bu asarlarda diniy arboblarning siyosiy hayotdagi ishtiroki, madrasalarning faoliyati va ulamolarning xalq bilan aloqasi tasvirlangan. Fiqhiy va huquqiy adabiyotlar, xususan "Al-Marghinoniyning Al-Hidoya" si va boshqa hanafiylik manbalari diniy boshqaruv me'yorlarini belgilashda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Aynan shu fiqhiy matnlarga asoslanib qozilar va muftiylar ijtimoiy masalalarni hal etishda huquqiy va axloqiy hukmlar chiqarib borganlar.

Zamonaviy tarixshunoslikda M. Is'hoqov, Z. Mamatov, A. Rustamov, N. Komilov kabi olimlarning asarlari Qo'qon xonligi ijtimoiy tuzilmalarining diniy jihatlarni o'rganishda asosiy nazariy poydevorni ta'minlaydi. Jumladan, N. Komilov o'z tadqiqotlarida diniy institutlarning ijtimoiy ongini shakllantirishdagi, ayniqsa, axloqiy tarbiya va qadriyatlar tizimidagi o'rniga alohida urg'u beradi. Shuningdek, H. Ziyo va Sh. Sirojiddinovning ishlari orqali diniy-ma'naviy meros va uning ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatiga ilmiy yondashuvlar berilgan. Qo'lyozma manbalar va vaqf hujjatlari orqali diniy tashkilotlarning moliyaviy mustaqilligi, ta'limiy faoliyati va ijtimoiy xizmatlari (masalan, kambag'allarga yordam, ta'lim berish) bo'yicha amaliy ma'lumotlar olinadi. Bu esa ularning ijtimoiy asoslarining kuchliligi va xalq orasidagi obro'sini tasdiqlaydi.

O'rta Osiyo tarixida XVIII-XIX asrlar oralig'ida shakllangan Qo'qon xonligi o'zining murakkab siyosiy tuzilmasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ayniqsa, diniy boshqaruv tizimi bilan alohida o'rin tutadi. Xonlik hududida islom dini – xususan, hanafiylik madhhabi asosida shakllangan diniy boshqaruv tizimi nafaqat huquqiy va siyosiy boshqaruv vositasi sifatida, balki ma'naviy-axloqiy hayotning negizi sifatida ham xizmat qilgan. Diniy tashkilotlar, jumladan, qoziliklar, muftiylar, vaqf boshqaruvlari va madrasalar xalq hayotini tartibga soluvchi, ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etuvchi muhim institutlar sifatida faoliyat yuritgan[3,115-118].

Qo'qon xonligi diniy boshqaruv tizimining shakllanishi va faoliyati tarixiy, fiqhiy hamda siyosiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu tizim, bir

tomondan, shariatga asoslangan adolat mezonlarini joriy etishga xizmat qilgan bo'lsa, boshqa tomondan, diniy-ma'rifiy faoliyat orqali jamiyatda axloqiy me'yorlarni, birdamlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlagan[4,65-68]. Bu holat diniy boshqaruv tizimining chuqur ma'naviy asoslar bilan mustahkamlangani, islom tamoyillari asosida hayot tarzining shakllanganidan dalolat beradi.

Mazkur maqolada Qo'qon xonligidagi diniy boshqaruv tizimining tuzilishi, asosiy institutlari va ularning funksional faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, diniy boshqaruvning jamiyatdagi ma'naviy rolini, uning xalq ongida mustahkamlangan qadriyatlar tizimidagi o'rnini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot tarixiy manbalar, fihiy adabiyotlar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida olib boriladi. Qo'qon xonligi davridagi diniy boshqaruv tizimining ma'naviy asoslarini ilmiy jihatdan o'rganish uchun bir qator tarixiy, fihiy va madaniy manbalarga tayanish zarur. Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'proq tarixshunoslik, islomshunoslik va huquqshunoslik fanlari chorrahasida joylashgan bo'lib, bu tizimni tahlil qilishda kompleks yondashuvni talab qiladi.

Dastlabki manbalar qatoriga mahalliy va xorijiy tarixchilarning Qo'qon xonligi tarixiga oid asarlari kiradi. Xususan, Ahmad Donish, Muhammad Hakimxon To'ra, Hofiz Tanish Buxoriy kabi mualliflarning asarlari xonlik davridagi siyosiy va ijtimoiy muhitni yoritishda muhim rol o'ynaydi. Bu tarixchilar o'z asarlarida diniy boshqaruv vakillari, jumladan, qozilar, muftiylar va ulamolarning faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratgan.

Markaziy Osiyoda o'rta asrlar an'anaviy jamiyatining ijtimoiy tarkibi – turli va murakkab tuzilishdan iborat ijtimoiy tabaqa va qatlamlardan tashkil topgan edi. Ularning orasida oliy nasab (“oliynasab”) guruhlar, din peshvolari, savdogar-hunarmandlar va boshqa qatlamlar jamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan. Shunday ekan u yoki bu ijtimoiy qatlamlarning vazifalari va roli bilan bog'liq masalalar bugungi kunda Vatanimiz tarixida o'z yechimini topmagan va ilmiy muammolar jumlasiga kirib kelmoqda. Ushbu masalani Markaziy Osiyoda o'ziga xos mavqeiga ega bo'lgan Qo'qon (jumladan, o'zbek xonliklari bilan qiyosiy tahlil asosida) xonligi misolida tadqiq etish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalom bor diniy tashkilotlar va ularning davlat o'rtasidagi munosabatlari, davlatning diniy tashkilotlarga nisbatan siyosati qanday bo'lgan degan masalaga aniqlik kiritadigan bo'lsak, Qo'qon xonligida XIX asrning 60 – 70 - yillaridan boshlab din peshvolarining ta'siri nihoyatda kuchaya boshlagan edi. Davlat oldida eng martabali kishi sifatida diniy unvon va lavozimlar orasida shayx ul-islomning obro'si muhim hisoblangan[5,78-79].

Xususan, Xudoyorxon davrida saroyda Imom Sohibzodaning (Imom Hazratning) ta'siri katta bo'lib, ushbu shaxsning xonlikda katta mol-mulki va yeru

vaqflari ham mavjud edi. Xalifa Azizi Namangoniy, Shayx Eshon Mehmonxonto'ra, Eshon Miyon Fazl Ahad, Eshon Abdurahim, Mulla Bobo Mahmud, Eshon Xalifa Safo, xalifa Oltmishlar xonlikda turli tariqat pirlari va murshidlaridan birlari hisoblangan va ularning saroyda ta'siri katta bo'lgan. Xudoyorxon xonlik taxtini saqlab qolish uchun ulamo va ruhoniylarni mol-mulk bilan siylab, ularga homiylik qilgan. Hattoki Rossiya imperiyasi bilan yaqinlashishida ham xurofotchi ulamolarning ba'zilarini kuch bilan tinchitib, ba'zilarini boylik bilan o'ziga qaratib olgan edi. Shunga qaramasdan xonlikda hukmron g'oya va dunyoqarash bu islom dini, huquq esa shariat bo'lgan[6,36-37]. Xon ham bu g'oyalar va shariat talablariga itoat qilishi zarur edi. Shuningdek, xonlik qo'shinida qoziy askar, mufti askar, imomi jilov, so'fiyi jilovi kabilarning vazifalari yana ham ta'sirli bo'lib bordi.

Din peshvolari va ulamolarning mol-mulki haqida sayyoh A.Kun bergan ma'lumotlarda ham ko'rinib turibdi-ki, saroy xizmatida bo'lgan xo'jakalon yilida 800 botmon g'alla (bug'doy), 1200 tanga yillik maosh olgan. Ikkita naqib esa 500 botmon g'alla va 1000 tanga pul, 5 nafar mirasad, 300 botmondan g'alla, 700 tangadan maosh, 10 nafar sadr mutobiqan, 200 botmon g'alla, 600 tanga yillik daromad, 50 nafar sudur 100 botmon g'alla va 400 tanga, o'roqlar esa (100 kishi) 50 botmon g'alla va 200 tanga pul olganligi eslab o'tilgan[7,65-69]. Bularni ham kambag'al aholi boshqa amaldorlar qatori boqib, ularni o'z hisobidan moddiy ta'minlab turishar edi.

T.Xudoyqulov o'zining Markaziy Osiyo davlatlarining boshqaruv tarixi bo'yicha amalaga oshirgan tadqiqotlarida din peshvolarining soliqlardan ozod bo'lish imtiyozlarini (arxiv hujjatlari asosida bergan ma'lumotida) Hazrati Shayx xonaqohida maqsurxon (Qur'ondan qisqa oyatlarni o'quvchi) bo'lgan Qori Ochildi a'mo (ko'r)ga tegishli 8 tanga tanob puli davlati oliy tarafidan maof (kechib yuborilgan) qilinganligini eslab o'tadi. Yana shunga o'xshash ma'lumot qo'shbegi tomonidan Hasanmurod Hojiga yo'llangan maktubida, eshon Abdurahim mudarrisda 55 tanga xirojiy tanob puli bo'lib, u davlati oliy tarafidan maof qilingani va uning pullariga daxl qilinmasligi so'ralgan.

Xonlikda fuqarolarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, davlatning salohiyatini ko'tarib, har jihatdan taraqqiy ettirish, xorijiy yoki qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy va siyosiy diplomatik munosabatlar o'rnatish kabi masalalar davlatchilikning muhim jihatlaridan biri hisoblangan. Shuning uchun hukmdorlar davlat boshqaruvida ijobiy islohotlar olib borishga intilganlar. Xususan, Qo'qon xonligidagi Oliy kengash bo'lib, uning tarkibiga markaziy davlat boshqaruvidagi barcha mansabdorlar a'zo etib kiritilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Qo'qon xonligining bosh vaziri bo'lgan mingboshi hamda oliy

diniy mansabdor - shayxulislom kengashning doimiy a'zosi bo'lgan. Shuningdek, xonlikning bosh qozisi, ya'ni qozikalon va harbiy ishlar bo'yicha ikki sudya - qozi askar ham kengashda ishtirok etgan. XIX asrning 30-yillariga kelib markaziy davlat boshqaruvida muhim vazifalar qatoriga kirgan dasturxonchi va risolachi ham kengash a'zosi bo'lgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayot va davlatning tashqi aloqalari masalalarida salohiyatli mansabdorlarning maslahatlari hukmdorlar uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'qon hukmdorlari huzuridagi kengashning faoliyati xususida, ya'ni, unda qanday masalalar ko'rilgan, degan savolga ham mahalliy muarrixlar asarlarida mavjud bir qancha ma'lumotlar mavjud. Agar ularga murojaat qiladigan bo'lsak, Tarixi Turkiston asarida shunday ma'lumot keltiriladi: - "(Olimxon) ko'p ulamo va fuzalolardin o'rdaga taklif aylab, majlisi xos barpo aylab, qo'shin voqiyoti va dushman ahvolotini va ul dushmanning daf'i va Farg'onaning osoyishtaligi va raiyaning besaranjom bo'lmasligi va xifzi mamlakat xususidagi maslahatni botariqa iltimosi arz qilgan..." . Demak, Qo'qon xonligida diniy tashkilotlar faqat diniy vazifalarni bajarish bilan cheklanmagan, balki Oliy kengashda xonga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, xalqqa yordam berish kabi masalalarda muhim maslahatlar (ko'rsatmalar) berib turishgan.

Diniy tashkilotlar jamiyatdagi (to'g'ri) axloqiy normalarni, ma'naviy qadriyatlarni qanday saqlagan, yoki ma'naviy va ijtimoiy muammolarni hal etishda diniy tashkilotlarning ahamiyati qanday bo'lgan degan masala ham ushbu paragrafimiz oldida qo'yilgan asosiy masala hisoblanadi. Shunday ekan xonlik qishloq va shaharlarida aholini islom va shariat qonun-qoidalari asosida sud qilish ishlari qozi zimmasida bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Qozi huzurida mufti, a'lamlar ham bo'lib, ular huquq (fiqh), hadislarni mukammal biluvchi ulamo hisoblangan. Jumladan, poytaxtdagi muftiylar 14 kishi bo'lib, ular amir yoki qozikalon tomonidan tayinlangan. Ular shariatga asoslangan qarorlar - fatvo yoki rivoyat tuzib uni bosh qoziga bergan, qozi shunga asoslanib qaror chiqargan[7,122-125]. Qozikalon "qozi sha'ri sharif" kabi sifat va "shariatpanoh», ya'ni "shariat himoyachisi" unvonlariga ega bo'lgan . Muhim diniy unvonlardan biri rais (raisi kalon) hisoblangan. Bunday lavozim har bir viloyat va shahar hokimi huzurida bo'lib, shuningdek har bir shahar va qishloqlarda mahalliy raislar bo'lgan. Masalan, xonlikda sayidlardan bo'lgan, nufuzli, har tomonlama odob-ahloqli kishi tayinlangan. Uning unvoni "riyosatpanoh" (boshqaruv himoyachisi) bo'lgan. Raisning vazifasi aholini diniy rasm-rusumlar, ahloqiy fazilatlari, bozorlarda savdo-sotiq tartibi, toshu tarozi to'g'riligini nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Jamiyatda aholiga islomiy va ma'rifiy bilimlar berishda mudarris, domullalarning roli katta bo'lgan .

Dininiy ulamolarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy mavqei, shuningdek nasliy, tabaqaviy mansublik (oliynasab, urug'dor), merosiy amal va mansab pog'onasi hamda uning hokimiyati, qonuniy yoki nasliy mustahkamlangan ijtimoiy huquq va imtiyozlar, moddiy ta'minotga ega bo'lishi singarilar bilan belgilangan. Bu haqidagi ma'lumotlar tadqiqotchi G.Normurodovanning maqolalarida eslab o'tiladi. Shuningdek, ulamolar ta'sirida ijtimoiy-normativ munosabatlar jamiyat barqarorligining ijobiy va salbiy tomonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan[8,157-159]. Xususan, ularning roli orqali diniy-ahloqiy, milliy urf-odat va qadriyatlar barqarorligi ta'minlangan. Biroq boshqa tomondan diniy mutaassiblikka sabab bo'lgan eski qarashlar, boshqaruv, xo'jalik va ishlab chiqarish sohalarida yangi usullarni joriy etishga to'sqinlik singarilar jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lgan sabablardan biri hisoblanadi.

Endi xonlikdagi ma'naviy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan diniy tashkilotlar xususida to'xtaladigan bo'lsak, bu madrasalar faoliyati hisoblanadi. Diniy ta'lim muassasalari (masjidlar, madrasa va boshqalar) ning rivojlanishi, aholining ma'rifatli bo'lishi, ularning axloqiy va ma'naviy savodxonligini oshirishda diniy ta'limning roli qanday bo'lgan[9,133-136]. Xususan, deyarli uchala o'zbek xonliklarida ham ilm-fanning rivojiga hissa qo'shgan madrasalar faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, jumladan, ta'lim tizimi, ya'ni maorif o'rta asr an'analari bo'yicha davom etgan. Boshlang'ich ta'lim 6 - 7 yoshdan boshlanib, o'g'il bolalar maktablarda, qizlar esa otinoyilarning uylarida ta'lim olganlar. Aksari maktablar mahalla masjidleri qoshida ochilgan bo'lib, alohida xususiy maktablar ham mavjud bo'lgan.

Tarixda ma'lumki, Movarounnahrda islom dinining kirib kelishi bilan diniy ta'lim va u bilan bog'liq ilmlar ham rivojlana boshlaydi. Ma'naviyatda hurfiylik, ilm-fanga hurmat-e'tibor va uning qadr-qimmatini yuksak baholash ustunlik qiladi. Ayniqsa, diniy va dunyoviy ilmlar uzviy holda taraqqiy etgan. Aynan shu davrdan hududlarda maktablar va madrasalar paydo bo'la boshlagan. Madrasalar qadimdan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida alohida nufuzga ega o'quv maskani sifatida katta obro'-e'tibor qozongan edi.

XIX asr o'rtalarida Qo'qon xonligida 350 taga yaqin maktab faoliyat ko'rsatgan. Maktablar shahar va qishloqlardagi masjidlar yonida faoliyat yuritib, ularning asosiy vazifasi bolalarga boshlang'ich bilimlar berishdan iborat edi. Odatda, Markaziy Osiyo davlatlarining maorif sohasida maktablarda yetti yil davomida bolalarga, ularning tushunish-tushunmasligidan qat'i nazar alifbe, Qur'on, abjad (arab raqamlarini yozuv orqali ifoda etish usuli), farzi ayn (imon, ibodat, tahorat va boshqa islom dini arkonlarini o'rgatadigan bilimlar majmuasi), Chahorkitob (imon, ibodat, tahorat va boshqa islom dini arkonlarini o'rgatadigan

bilimlar majmuasi), Xo'ja Hofiz, Sa'diy she'rlari, So'fi Allohoyor ("Maslak-ul-muttaqqin" – So'fi Allohoyorning asarlaridan biri) va Mirzo Bedil asarlaridan savod o'rgatilishi lozim edi. O'zbek bolalari ko'proq bo'lgan maktablarda yana besh kitob – "Fuzuliy kitobi", "Lison ut-tayr", "Alisher Navoiy devoni", Mashrabning ijodi o'tilgan[10,144-146].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Ahmedov B. O'zbek xonliklari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1995.

Aminov Z. O'zbekistonda islom dini tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.

Bobojonov S. Sharqdagi diniy-huquqiy tafakkur taraqqiyoti. – Toshkent: Adolat, 2007.

Karimov I. Tarixiy xotira va milliy o'zlik. – Toshkent: Sharq, 1998.

Kayumov A. Islom va madaniyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.

Negmatov N. N. Ocherki istorii Ferganskoy doliny. – Dushanbe: Donish, 1983.

Nazarov Q. Qo'qon xonligi davlatchiligi va siyosiy tuzilmasi. – Toshkent: Fan, 2009.

Saidov A. X., To'xtaxo'jaeva M. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2004.

Semyonov A. A. Materialy po istorii Sredney Azii. – Tashkent: Akademiya Nauk SSSR, 1948.

Usmonov M. Vaqf va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. – Toshkent: Fan, 1992.